



O'ROZ HAYDAR SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN SHEVAGA XOS LEKSIK BIRLIKLAR

Rajabova Nargiza

Lingvistika (o'zbek tili) 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'roz Haydar she'riyatida qo'llangan shevaga xos so'zlarning leksik xususiyatlari va ularning tarixiy taraqqiyot natijasida qanday o'zgarishlarga uchraganligi tahlil markaziga tortilgan.

Kalit so'zlar: adabiy til, shevaga xos so'zlar, dialektologiya, dialektizmlar, lug'aviy dialektizm, dialektizm-leksem, dialektizm-semema.

Абстрактный: В данной статье в центр анализа вынесены лексические особенности диалектных слов, используемых в поэзии Ороза Хайдара, и то, как они изменились в результате исторического развития.

Ключевые слова: литературный язык, диалектные слова, диалектология, диалектизмы, лексический диалектизм, диалектизм-лексема, диалектизм-семема.

Abstract: In this article, the lexical features of dialectal words used in Oroz Haydar's poetry and how they have changed as a result of historical development are brought into the center of analysis.

Key words: literary language, dialect words, dialectology, dialectisms, lexical dialectism, dialectism-lexeme, dialectism-sememe.

Hozirgi texnika va fan taraqqiyoti davrida tilshunosligimiz uchun leksika hamda leksikologiya alohida ahamiyatga ega bo'gan bo'limlardan sanaladi. Hayotimiz qanchalik rivojlanib yangidan- yangi atamalar kirib kelgani sayin, tilimizda so'z boyligining oshishi imkoni ham shunchalik oshib bormoqda. Biroq o'zbek adabiy tili va leksikologiyasi nafaqat yangi so'zlar xisobiga balki shevalardan so'z olish, ya'niy ichki imkoniyatlar xisobiga ham boyish xususiyatiga egadir. Tilshunosligimizda leksikologiyaning alohida bir bo'limi sifatida shevaga xos so'zlar ahamiyatli sanaladi. Shevaga xos so'zlar fanda dialektlar yoki dialektalizm deb yuritilishi tilshunioslarimiz uchun ma'lumdir. Dastlab, sheva so'zlarining o'rganilishi barchaga ma'lumki, XI asr lug'atshunos olimi Mahmud Koshg'ariy nomi bilan bog'liq sanaladi. Olim lug't tuzish mobaynida ayrim sheva so'zlarining ma'nolari, kelib chiqishi haqida atroflicha to'xtalib o'tgan. Masalan, lingvist olim G. Roziqovanning tadqiqot ishida metateza hodisasiga uchragan so'zlarni quyidagicha tahlil qilgn:" Metateza hodisasi ikki xil bo'ladi: kontakt metateza va distant metateza. Jag'mur so'zining yomg'ir, kirpik so'zining kiprik tarzida o'zgarishi kontakt metateza."¹ deya ta'kidlaydi. Lekiskologiyaga oid tadqiqotlqrdan yana biri bo'lmish Z. Xolmonova ham "Boburnoma" leksikasi tadqiqi" ga bag'ishlangan tadqiqotlarida asarda uchragan sheva so'zlarining o'zbek tiliga munosabati to'g'risida to'xtalib o'tadi. "Boburnoma" leksikasidagi bir qator so'zlar

¹ G. Roziqova. Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'ati turk" asridagi ot leksemalarining semantik, funksional va uslibiy xususiyatlari. Dissr. Farg'ona -2021



hozirgi o'zbek shevalarida qo'llanadi. "O'zbek shevalari lug'ati"dagi 87 ta so'z aynan "Boburnoma"dagi ma'noda, 35 ta so'z farqli ma'noda qo'llanadi.²

Tilshunoslikka oid ba'zi manbalarda sheva so'zlar-dialektalizmga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan: "Dialektal leksika ma'lum territoriyada yashaydigan hamma kishilar qo'llaydigan, o'sha territoriya aholisi nutqiga xos bo'lgan so'zlardir. Bundan tashqari, dialektal leksika faqat og'zaki nutqqa xosdir. Bu jihatdan u oddiy so'zlashuv leksikasiga o'xshab ketadi. Lekin oddiy so'zlashuv leksikasining qo'llanilish doirasi territoriya jihatdan chegaralangan bo'lmaydi."³ Zero, sheva so'zlar ma'lum hudud jihatidan farqlanadi va shu orqali qaysi shevadan yoki qaysi lahjadan iste'molda qo'llanishi bilib olinadi. Yana bir tilshunos olim Sh. Rahmatullayev ham dialektlar haqida o'z fikrlarini bildirib o'tgan: "Ishlatilishi territoriyaga ko'ra chegaralangan til hodisalari dialektizm deyiladi (yunoncha dialektos - tilning mahalliy ko'rinishi). Dialektizm – umumtilga emas, balki shu umumtilning mahalliy ko'rinishlari bo'lgan dialektlarga xos hodisa; shunga ko'ra bular odatda biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko'pincha boshqa dialektlarning vakillariga, shuningdek adabiy tilga ham xos bo'lmaydi."⁴ Tilshunos dialektlar haqida ma'lumot berib borar ekan ularni uch asosiy turga bo'ladi.

Lug'aviy dialektizm – lug'aviy birliklardagi tur.

Grammatik dialektizm – grammatik hodisalardagi bir tur.

Fonetik dialektizm – tovush talaffuzi va tovush o'zgarishiga bog'liq bir tur.

Bunga qo'shimcha tarzda olim **lug'aviy dialektizmlarni** o'z ichida yana ikkiga ajratadi va bular dialektizm-leksem hamda dialektizm-semema.

O'roz Haydar ijodini leksik tadqiq qilqr ekanmiz, shoir ijodining salmoqli qismi shevaga xos so'zlardan iborat ekanligiga guvohi bo'lamiz. Asli chiroqchilik bo'lgan ijodkorning ijodi namunalarida ham ona zmini nafasi ufurib turadi. Shoir ijodining qay bir she'rini olmang har birida shevaga oid, yanada tushunarli qiladigan bo'lsak, oddiy, xalqona kayfiyatning guvohi bo'lamiz.

Quyida adib lirikasini tashkil etgan dialekt so'zlardan birqanchasi keltirib o'tildi: kirpi, sag'ir, xurjun, qulbachcha, chorpoya, rom, avra-astar, qahat, g'alcha, matoh, janda, qantarib tashlamoq, boshpurt, go'r, ag'na, chapak, og'och, qo'nalg'a, mog'orlagan, chapak, chalg'i, injimoq, jul, chashvon, yukunmoq, istayurman, shoti, tirsak, quyqa, kuchuk, choshgoh, mucha olmoq, satl, izg'iroq, qilvirlik, en, tanimovdim, tujjor, to'sh, marqa, xittagi g'alchalanur, chobuksuvorim, inja, shovur, no'xta, sarkash, g'apshinib, bidon idish, ifshod, momo, nadayim, chatnashib, to'nkargan, peshband,

² Z. Xolmonova. "Boburnoma" leksikasi tadqiqi. Dissert. Toshkent-2009.

³ O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. "Fan" nashriyoti. 1981.

⁴ Rahmatullayev. Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili (darslik). Toshkent. Univerasitet, 2006.



qo'rdin, kapa, uniqqan, yorg'ichog'beboklik, losh, chilvir, kissa, to'ngla, sirqindi, so'nargan, bolish, hech qursa, chiyralgan, chibin, esh, kamand, chuvi, gurunglashgu, Pitrat, mengzamoq, qatqaloq, chorig', oting o'zsin, kazzob, gavron, chovut, arqoq, shopirmoq, jigit, o'sal, chillig, chachvon, chordana qurmoq, aldangi, chalvor.

Keltirilgan so'zlarning ba'zilar adabiy tilda boshqa ma'no shevalarda boshqa ma'no bildirsa, ba'zi leksemalar esa so'z tarkibining o'zgarishi bilan qo'llangan bo'lib, asli adabiy tilda mavjud bo'lgan ma'nosi saqlanib qolgandir. Chunonchi, adib lieksikasida mavjud bo'lgan **kirpi** dialekti Sh. Rahmatullayevning ta'rif berishicha, "tipratikan". **K i r i p i** zaharli ilonlarga qiron keltiradi. Bu ot hozirgi o'zbek tilida sheva so'z deb qaraladi. Asli **kirpi** so'zi "ko'p tikan" ma'nosini anglatgan bo'lishi kerak."⁵

Tog'lar munkib yiqildi, ana,
Kirpi misol junjikdi qirlar.
So'nik oftob ko'zida ta'na,
Titiladi chirigan nurlar.

Xuddi shuningdek, **kissa** shevaga oid so'zining ham kelib chiqish tarixi haqida to'xtalib o'tgan olim bu leksemani quyidagicha ta'riflaydi. "**KISSA**" asli tojikcha ot bo'lib, asli *kisa* tovush tarkibiga ega. O'zbek tilida *s* tovushi qaytalangan; *hamyon*, *cho'ntak* ma'nolarini anglatadi.⁶

Ber, ularga **kissangda** borin,
Paypog'ingni yalovday tutgil.
Tinglaganda ginali zorin,
Sen o'zingni bir zum unutgil.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, lug'aviy dialektizmlar ikkiga ajratiladi. Bular dialektizm-leksem hamda dialektizm-semema.

Dialektizm-leksemalar ma'lum sheva egalari uchun ishlatiladigan va adabiy til unsurlari uchun yangi hisoblangan so'zlar sanaladi. Adib ijodidagi kirpi, kissa, sag'ir, xurjun, chorpoqa, rom, avra-astar, qahat, g'alcha, matoh, janda, qantarib tashlamoq, go'r, chapak, og'och, qo'nalg'a, chapak, chalg'i, injimoq, yukunmoq, shoti, tirsak, quyqa, kuchuk, mucha olmoq, satl, izg'iroq, qilvirlik, en, marqa, xittagi g'alchalanur, inja, shovur, no'xta, sarkash, g'apshinib, bidon idish, ifshod, momo, nadayim, chatnashib, to'nkargan, peshband, qo'r, kapa, uniqqan, yorg'ichog', beboklik, losh, chilvir, kissa, to'ngla, sirqindi, so'nargan, bolish, chiyralgan, esh, chuvi, mengzamoq, qatqaloq, chorig', kazzob, gavron, chovut, arqoq, shopirmoq, jigit, o'sal, chillig, chachvon, chordana qurmoq, aldangi kabi leksemalar bunga misol bo'la oladi.

⁵ Sh. Rahamtullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent. "Universitet", 2000.

⁶ Sh. Rahamtullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent. "Universitet", 2009. –B.122.



Bu soʻzlar dialekt ichida oʻziga xos maʼno kasb etadi. Misol uchun, **gʻalcha** soʻzini olsak, biz bilamizki, bu leksema gapga tushinmay bir narsani tinimsiz soʻrayveradigan odamga nisbatan ishlatiladi. Ammo Oʻzbek tilining izohli lugʻati⁷da bu soʻzning shevadagi maʼnosini tubdan farqini koʻrsatib oʻtiladi.” GʻALCHA I shv. Boʻyi past, miqti, pakana (odam haqida). Oʻn qadamcha narida, supada gʻalcha yigit bilan qorachadan kelgan qiz turardi. A. Hasanov, Chiroqlar.”⁷

Qaddimni bukmadim, qoʻlladi egam.

Meni masxaralab elim **gʻalchasi**,

Yuzimga otsayam eshak tezagin.

Toʻn emas, egnimga yirtiq sholchasin

Yopsayam rafiqim, til yutdim tagʻin.

En soʻzi shevada koʻpincha qora mol yoki mayda (qoʻy, echki) boqadigan choʻponlar orasida koʻp uchraydi. Garchi soʻzning konkret maʼnosi kitoblarda berilmagan boʻlsa-da, bu soʻz shoirning taʼkidlashicha “chorva moli qulogʻiga qoʻyiladigan belgi” maʼnosini anglatadi.

Baʼzi bir qoʻychivon boʻridan battar,

Suruviga qoʻying qoʻshilsa agar,

Soʻrab-surishtirmay tamgʻalab qoʻygay,

*En**i bizdandir deb daʼvo ham qilgay.

Shoir oʻzi izoh berib oʻtgan sheva soʻzlardan yana biri **aldangi** hamda **nadayim** leksemalaridir. hisoblanadi. Bulardan *aldangi* soʻzining maʼnosi *hayoloti* boʻlsa *nadayim-xasis*, *battol* degan maʼnolarni anglatadi.

Nadayim boʻlmagil, oʻzlikdan oʻzma,

Ermaklab ne tutsa, qoʻlingni choʻzma.

Kimlardan qolmadi bu eski doʻkon,

Eskisin topdim deb yangisin buzma. (“Sukut haqqushi”. Tamoyil)

Gʻayrat begonadir xayol quliga,

Erksizlikning bandi boʻlgay gʻuliga.

Bola yetagida ayiqqa monand

Jilovin topshirgay har kim qoʻliga. (“Sukut haqqushi”. *ALDANGI*)

Shu bilan birga shoir ijodida baʼzi bir tarkib oʻzgarishiga uchragan soʻzlar ham uchraydi.

Sayyohdirsan, lek *boshpurting* yoʻq,

Fuqaro ham emassan yana.

Qayda tugʻilgansan, bu haqda

⁷ Oʻzbek tilining izoli lugʻati. 5-tom. "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.



Bitilmagan birorta sana. (“Kechikkan fasl”. Oyga)

Bir soʻz aytmoq boʻlaman, ammo

Pitradayin sochilur soʻzim.

Shundan erur hamma muammo,

Yolgʻizlikning quliman oʻzim.

Bunda keltirilgan boshpurt - “*pasport*” yaʼniy “*shaxsni tasdiqlovchi hujjat*” ning oʻzgaragn shakli boʻlsa, *Pitrat* jadid bobolarimizdan *Fitratga* ishoradir.

Umuman olganda, shoir ijodiyoti sheva soʻzlarining oʻrinli qoʻllanishi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Adib sheʼriyatida dialektlardan qancha koʻp foydalansa, uning sheʼrlari qadr-qimmatini shunchalik koʻp oshgan boʻlsa, oshganki, ammo kamaygani yoʻq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G. Roziqova. Mahmud Koshgʻariy “Devoni lugʻati turk” asridagi ot leksemalarining semantik, funksional va uslubiy xususiyatlari. Dissr. –Fargʻona, 2021.
2. Z. Xolmonova. “Boburnoma” leksikasi tadqiqi. Dissr. –Toshkent, 2009.
3. Oʻzbek tili leksikologiyasi. –Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1981.
4. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (darslik). –Toshkent. Univerasitet, 2006.
5. Sh. Rahamtullayev. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. –Toshkent. “Universitet”, 2009. –B.122
6. Yuldosheva N.E. On methods of research of uzbek language syntax// Vidyabharati International Interdisciplinary Research Journal (Special Issue). ISSN 2319-4979. 2021. № 26. - P. 3913-3918.
7. Yuldosheva, N., & Ergasheva, R. (2020). Research Of Terminology And Aviation Terminology. The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN–2689-100x) Published: August, 25, 312-317.
8. ЮЛДОШЕВА, Н. (2022). СОДДА ГАП ҚОЛИПЛАРИ ВОҚЕЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АКЦЕНТУАТИВ ОМИЛЛАР. О „ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 1(3).
9. Юлдошева, Н. Э., & Мавланова, Н. Т. (2023). СОДДА ГАП ҚОЛИПЛАРИ ВОҚЕЛАНИШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ПРОСОДИК ВОСИТАЛАР. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 556-564.
10. Davlatova, M. H. (2021). Semantic implementation of resultative structures. JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6, 291-294.
11. Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN



THE LANGUAGE SYSTEM. ILMİY XAVARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура,(1),
86-89.

- 12.Davlatova, M. (2023). Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages. In E3S Web of Conferences (Vol. 420, p. 10027). EDP Sciences.
- 13.Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 52-58.
- 14.Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.

